



## BADIIY TARJIMADA EVFEMIZMNING O`RNI

*Abdullayeva Iqbolxon Saydullo qizi*

*Surxondaryo viloyati Termiz shahri Termiz davlat*

*Pedagogika Instituti nemis tili stajor-o`qituvchisi.*

+99893 493 55 05

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada nemis va o`zbek tillaridagi asarlarda evfemizmlarni qo`llash va ularning tarjimadagi o`rni keltirilgan bo`lib, lingvistik tanlovga singib ketgan madaniy asarlarni o`rganishga qaratilgan. Adabiyotlarni o`rganish orqali tadqiqotda lingvistik tahlil va madaniy talqinni birlashtirgan uslubiy yondashuv qo`llaniladi. Natijalar nemis va o`zbek tillarida so`zlashuvchilarning o`ziga xos madaniy munosabat va ijtimoiy me`yorlarni aks ettiruvchi nozik mavzularda evfemizmlardan qanday foydalanayotganiga oydinlik kiritadi. Mukoma bo`limi ushbu topilmalarning natijalarini o`rganib chiqadi va samarali madaniyatlararo muloqot uchun evfemistik strategiyalarni tushunish muhimligini ta`kidlaydi.

**Kalit So`zlar:** evfemizmlar, nemis adabiyoti, badiiy tarjima, madaniyat, til, o`zbek adabiyoti, tilshunoslik.

Maqolada tarjima jarayonida ko`chimlarning denotatning minus yoki plyus qutblarini qutblarini o`zgarishga uchrashi, xususan evfemik va disfemik birliklarning almashinuvi xususida so`z boradi. Shu bo`yicha mulohaza yuritgan olimlarning fikri tahlilga tortiladi.

Badiiy matn va asarlarda evfemizatsiya tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida qo`llaniladi. Moskvina "bu uslubda evfemizmlar nafaqat gapni yumshatish, balki estetik vazifalarni ham bajaradi" degan edi. Har bir fanda bo`lganda kabi tilshunoslik va adabiyotshunoslik ham kundan kunga tarqaqiyot topib rivojlanib



bormoqda va yangi nazariy qarashlar, yangidan yangi soʻzlar tabu va evfemizmlar paydo boʻlmoqda. Inson tili benihoya murakkab xisoblanib, uning barcha jihatlarini yaxlitligicha va birdaniga tasavvur qilish qiyindir.

Hozirgi zamon yetakchi tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning ilmiy markazida “evfemizm” tushunchasi nihoyatda keng koʻlamda va yuqori semantik kategoriya sifatida muloqotning mazmunga boy jihatlarini namoyon qiladi va ifoda etilayotgan fikr va mulohazaning muloqot jarayonidagi nufuzi hamda maʼnosini oshiradi. “Evfemizm” yunoncha soʻzdan olingan boʻlib “yumshoq ifodalash” degan maʼnoni anglatadi va soʻzlovchiga aytish noqulay va qoʻpol boʻlgan soʻzlarni va iboralarni yumshatib aytishga xizmat qiladi. Soʻzlashuv nutqida va ayniqsa badiiy tarjimada evfemizmning oʻrni juda katta xisoblanadi. Chunki badiiy tarjimada beadab va nooʻrin soʻzlardan foydalanish tarjima maʼnosiga katta salbiy munosabat bildirilishiga va kitobxonning qiziqishini soʻndirib qoʻyishiga olib kelishi mumkin.

Evfemizmlardan badiiy tarjimada foydalanish esa asarlarni chiroyli va qiziqarli tarjima boʻlib chiqishiga sabab boʻlishi mumkin.

Evfemizmni badiiy adabiyotlar orqali oʻrgansak, stilistik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etishini koʻrishimiz mumkin.

Badiiy asarlarning tarjimasida bu hol yaqqol koʻzga tashlanadi. Tilshunos olimalar, D.H.Karimovanning tadqiqoti va M.M.Mahmudovanning tarjimaga oid ilmiy maqolalarida evfemizmning namularini koʻplab uchratishimiz mumkin. Evfemizmlardan nafaqat badiiy asarlar tarjimasida ishlatiladi, balki ularni qoʻllash soʻzlovchidan katta soʻz boyligi va sanʼat va mahoratni talab qiladi.

Evfemizmga horij tilshunosligida boshqa yondosh hodisalar masalan jargon bilan teng munosabatda ham qaraladi. Inson nutqida evfemizm eng muhim birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham evfemizm hodisalarini doimo oʻrganish va evfemistik soʻz va iboralardan kundalik hayotda qoʻllab turishimiz lozim. Evfemistik soʻz va iboralar oʻzida madaniyat, etik va estetik ruhni namoyon etadi.



Evfemizmlarni tahlil qilganimizda, ayniqsa fransuz, nemis va o'zbek tilshunosligida evfemizmlarning o'rnini, ularning mohiyatini ko'rib chiqqanimizda, bu tillarda evfemizmlar madnaiyat jihatdan tubdan farq qilishiga guvoh bo'lamiz. Bu ayniqsa, milliy mintalitet va madaniy o'ziga xoslik bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek tilidagi evfemizmlarning ildizi diniy qarashlar va qadimiy adabiyotlarga borib taqaladi. Bizning dinimizda yomon so'zlarni ishlatish va bunday yomon beadab so'zlar bilan insonlar ko'nglini og'ritish gunoh xisoblanadi. Adabiyotlarda va badiiy asarlarda evfemizlardan foydalanish tarjimon va yozuvchining so'z boyligiga bog'liq xisoblanadi. Badiiy asarlar tarjima qilinganda yuz, chehra so'zlarining o'rniga turq, aft so'zlaridan yokida oraz, ruxsor so'zlaridan foydalanish tarjimonning lisoniy boyligiga bog'liqdir. Evfemizm vaqt o'tishi bilan lisoniy birlikka aylanish xususiyatiga ega, ya'ni chehra so'zini badiiy asarlarda ko'p qo'llash natijasida kitobxonlar nutqiga olib kirilishi nazarda tutilgan. Bunday birliklar va iboralar badiiy asarlar va trjimalarda juda ko'plab uchraydi. Biz ularni o'rganish uchun ko'plab tarjima asarlarni o'qib o'rganishimiz lozim deb o'ylayman.

O'zbek tilidagi ko'plab asarlar boshqa tillarga xususan nemis var us tillariga tarjima qilingan va bizning kunlik lug'atimizdagi so'zlarni boshqa tillarga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib bo'lmasligi sababli evfemistik so'z va iboralardan foydalanishgan.

Nemis tilida ishlatiladigan seer gehrte Frau, Fraulein, Damen kabi so'zlarini o'zbek tiliga xonim afandi, qadrlil xonim deya tarjima qilinadi va bu so'zlovchini murojaat qilayotgan shaxsga xurmat va ehtiromini, yoshini xurmat qilib gapirayotganini bildirib keladi.

Bundan tashqari o'zbek tilida ham kelinlar qaynona so'zi o'rniga ishlatadigan oyijon, qaynота so'zi o'rniga dadajon so'zlari ham estetik va madaniy evfemizmga misol bo'la oladi.

Evfemizm madaniy hodisa sifatida madaniyat taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Turli xalqlar evfemizmlaridagi madaniy o'xshashliklar ularga yuklangan



vazifalarning bir xilligidan kelib chiqadi. Evfemizmlarni vazifalariga ko'ra: tabu – taqiq ifodalovchi evfemizmlar va xushmuomalalik ifodalovchi evfemizmlarga ajratishimiz mumkin.

Bunga biz o'zimizning asarlardan ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan Oybekning “Navoiy” romani. Ushbu asar tarjimasida ham ko'plab evfemistik so'z va iboralardan foydalanilgan. Bunday asarlar juda ko'plab berilgan.

Evfemizm xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Til va adabiyotning taraqqiyoti bilan uning evfemistik qatlami ham rivojlanadi. Yangicha axloq odob, yangicha dunyoqarash me'yorlari asosida evfemizmning yangi shakllari yuzaga keladi. Tilde muayyan nutq vaziyati talab bilan vujudga kelgan evfemizm ham mavjudki, ularning ma'nosi ko'pincha matn orqali oydinlashadi. Masalan, “Ra'noni egasiga topshirmagunimizcha, - dedi Nigor oyim,- quyilmaydiganga o'xshaydi”. (A.Qahhor) jumlasida nutq odobi nazaridan “erga bermoq” iborasi o'rnida egasiga topshirmoq shaklidagi evfemizm qo'llanilgan. Evfemizm ilmiy va rasmiy uslublarda balki so'zlashuv uslubida ham keng qo'llaniladi.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilsn bog'liq. Har ikki hodisa – ko'cjim, nutqiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Ulardan ba'zilar lisoniy birlik bo'lib, ba'zilar adabiy me'yor qatoridan joy olgan.

Tanishib chiqqan tadqiqotlardan shuni aytish mumkin-ki, doim ham evfemizmlar asliyatda bo'lgani kabi tarjimalarda ham hosil bo'lavermaydi. Ba'zan esa aksincha asliyatda so'zlar orqali ifodalangan jumlar tarjimalarda evfemizmlarni keltirib chiqarishi mumkin. Evfemizm har xil noto'g'ri tushunchalar, irim - sirim, diniy e'tiqodlarni berkitishda o'rab turgan dunyo hodisalari, aniq bir belgilangan narsalarni nomi bilan berkitishda leksik ta'qiqlarni natijasini, nima oqibatida inson kinoyali iboralarni qo'llashini bildiradi.



Boshqacha aytganda, aytish uyat, eshinishi qo'rqinchli, xavfli, noxush deb hisoblangan, insonda yomon his - tuygular uyg'otadigan narsa - hodisa yumshoq, muloyim, yoqimli, erkalovchi, beozor, chiroyli ma'no - mazmun ifodalovchi so'z va iboralar almashtirib aytilishidir. Ushbu maqolaga izlanishlar natijasida kop'lab ma'lumotlarga ega bo'ldim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек тилларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фанлари доктори... дисс. – Т., 2017. – Б.15
2. Лингвистический энциклопедический словарь / О.С.Ахмановой. -2-е изд.,стер. – М : УРСС : Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.  
Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: EFFECT-D нашриёти, 2022. – Б. 27.
3. Вандриес Ж. Язык. –М.: Гос. соц.-экон. изд-во, 1937. –С. 206; Булаховский Л.А. Введение в языковедение. –М.: УЧПЕДГИЗ, 1954. –С. 49; Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. –М.: Флинта, 2012. –С. 284; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия, 1966. –С. 521.
4. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2015. – В. 43.
5. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H., O'zbek tili stilistikasi, T., 1983; Omonturdiyev A., O'zbek nutqining evfemik asoslari, T., 2000.
6. Qodirova. X. O'zbek tilida evfemizm va disfemizm. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Yangi asr avlodi". 2013, 52 b.
7. Kurbanov S.S., Saparova M.R. Badiiy asar jozibadorligini oshirishda qarg'ish anglatuvchi desfemizmlarning personajlar nutqida berilishi.



8. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф... канд. Филол. Наук. – Санкт – Петербург, 2008. – С. 20.
9. Aybek. Nevâyi, Roman, Türkiye Türkçesine aktarma ve İnceleme Prof. Dr. Şuayip Karakaş. –İstanbul: Ötüken Yayınevi, 2019. – 461 s.
10. Aybek, M.T. Nevai, Çev. Ahsen Batur. – İstanbul: 1995.
11. Oybek, Navoiy, roman, / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir hay'ati: Bobir Alimov va b. –Toshkent: «Sharq», 2004, – 496 b.